

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 132 (1193), 2024-yil 4-iyul, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news




yuz



SAMARALI MULOQOTLARDA IKKI TOMONLAMA STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI MUSTAHKAMLASHGA ALOHIDA E‘TIBOR QARATILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-iyul kuni Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi va “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun Ostona shahriga keldi.



Ostona xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Shu kuni Ostona shahrida tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Xitoy Raisiga O‘zbekistondagi ortga qaytmas islohotlarni qat’iy qo‘llab-quvvatlayotgani

hamda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratayotgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Yetakchilar keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlikning barcha yo‘nalishlarida ulkan yutuqlarga erishilganini ta’kidladilar.

O‘zbekiston Prezidentining joriy yil yanvar oyida Xitoyga davlat tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Hukumatlar, parlamentlar, tashqi siyosat va tarmoq idoralari o‘rtasidagi aloqalar sezilarli darajada faollashdi.

Yil yakuniga qadar Tashqi ishlar vazirlari strategik muloqotining ikkinchi yig‘ilishini Toshkent shahrida o‘tkazish rejalashtirilgan.

Yaqin kunlarda Xitoy parlamentining yuqori darajadagi delegatsiyasining O‘zbekistonga tashrifi kutilmoqda.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

O‘tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 14 milliard dollarga yetdi. Yaqin istiqbolda bu ko‘rsatkichni 20 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari qayd etildi.

Investitsiya loyihalarining joriy portfeli 50 milliard dollardan oshgan. Shu yil boshidan buyon mamlakatimizda 3 milliard dollardan ziyod Xitoy sarmoyasi o‘zlashtirilib, 500 dan ortiq yangi qo‘shma korxona tashkil etildi.

Infratuzilma, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi va “yashil” energetika sohalarida strategik hamkorlik dasturlarini qabul qilishni jadallashtirishga kelishib olindi.

Yaqinda Jizzax viloyatida O‘zbekiston — Xitoy texnopark ishga tushirilgani va mintaqamizda birinchi bo‘lib “BYD” elektromobillari ishlab chiqarila boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Xitoyning yetakchi moliyaviy tuzilmalari bilan hamkorlik kengaymoqda. Xususan, “Ipak yo‘li” jamg‘armasi bilan investitsiya platformasi yaratildi, Xitoy Eksimbanki ko‘magida poytaxtimizda Olimpiya shaharchasi qurilishi yakunlanmoqda. Ushbu bankning Toshkent shahrida hududiy filiali ochilishi kutilmoqda.

Hududlararo almashinuvlar faollashgani yuqori baholandi. Yil boshidan buyon mamlakatimizning barcha hududlari rahbarlari bir necha bor Xitoyga tashrif buyurdi, Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni, Anxoy, Szyansi, Szyansu, Chjeszyan, Shandun, Shensi va Shanxay muzofotlari delegatsiyalari O‘zbekistonda bo‘ldi. Pekin, Urumchi va boshqa bir qator shaharlarda savdo uylari ochildi.

Kelgusi yilda ikkinchi Hududlar forumi o‘tkazilishi belgilab olindi.

Prezidentimiz XXR Raisini kambag‘alikka qarshi kurashish sohasida amaliy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlayotganini alohida ta’kidladi. Bu muhim yo‘nalishda tajriba

almashish bo‘yicha uzoq muddatli dastur qabul qilish taklifi bildirildi.

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida transport bog‘liqligini mustahkamlash va mintaqani rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston temir yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlarni tez fursatda boshlash muhimligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. O‘zbekiston tomonining “yagona Xitoy” siyosatini qo‘llab-quvvatlash va “uch yovuz kuch”ga qarshi kurashish borasidagi pozitsiyasi o‘zgarmas ekanini tasdiqlandi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, “Markaziy Osiyo — Xitoy” formati va boshqa xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi yaqin hamkorlik davom ettiriladi.

Davlatimiz rahbari XXR yetakchisiga SHHTga raislik davrida katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Turizm, ilm-fan, ta’lim, kadrlar tayyorlash va xitoy tilini o‘rganish sohalarida hamkorlikni kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Yaqinda Toshkentda Markaziy Osiyodagi Konfutsiy institutlari forumi bo‘lib o‘tdi. Mamlakatimizda XXR oliy o‘quv yurtlari filiallarini ochish, Xitoyning professional ta’lim tizimi — “Lu Ban ustaxonasi”ni keng joriy etish rejalari belgilandi. Ikkinchi Ta’lim forumi kelgusi yilda o‘tkazish taklifi bildirildi.

Muzokaralar yakunida O‘zbekiston Prezidenti XXR Raisini mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Uchrashuv har doimgidek o‘zaro ishonch, ochiqlik va do‘stlik ruhida o‘tdi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Pokiston o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalardagi muloqotlar faol davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo va yuk tashish hajmi, qo‘shma korxonalar soni ortmoqda.

Davlatimiz rahbari Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim doirasida tovar ayirboshlash hajmini oshirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish borasidagi ishlarni davom ettirish muhimligini ta’kidladi.

Qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, farmatsevtika, kimyo va boshqa tarmoqlarda loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish muhim ekanini qayd etildi.

Joriy yilda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi, biznes forumi va sanoat ko‘rgazmasini o‘tkazishga kelishib olindi.

Transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini amalga oshirishda birgalikdagi sa’y-harakatlar zarurligi ta’kidlandi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

SHHTning 4-iyul kuni bo‘lib o‘tadigan sammiti kun tartibidan tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va faoliyatini takomillashtirishning dolzarb masalalari o‘rin olgan. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlikning muhim jihatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Yig‘ilish yakunida Ostona deklaratsiyasi hamda iqtisodiyot, xavfsizlik, ekologiya, energetika, turizm va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda sheriklikni kengaytirish bo‘yicha hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

O‘ZA

Buyuk o‘zbek yo‘li

DUNYOGA YUZ OCHIGAN O‘ZBEKISTON

So‘z va amal birligi e’tirofi

Xalqimiz so‘z va amal birligiga jiddiy e’tibor beradi. Masalan, boshqalarni yaxshilikka chorlayotgan inson nuqsonlardan xoli bo‘lishi kerak. Aynan shu Sharq allo-malari orzu qilgan komil inson targ‘iboti samarasi.

Ha, ajdodlarimiz komil shaxs qiyofasini aytgan gapiga o‘zi amal qiladigan inson-

larda ko‘rgan. Usiz yetuklikka erishib bo‘lmagligini inkor etib bo‘lmas hayotiy misollar bilan isbotlagan. Mamlakatlar ham xuddi shunday. Bu, ayniqsa, hozirgi global siyosiy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega.

Bugun mamlakatimiz xalqaro maydonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, global muammolarga yechim topish uchun

qator tashabbuslarni ilgari suryapti. Ular esa haqli ravishda e’tirof-larga sabab bo‘lmoqda. Chunki so‘z va amal birligi barcha uchun birdek qadrli. Yangi O‘zbekistonda inson qadri uchun boshlangan islohotlar zamirida ana shu hayotiy haqiqatni ko‘rishimiz mumkin.

Islohotlar debochasi

Rasmiy tashrif bilan 30-iyun — 1-iyul kunlari mamlakatimizda bo‘lgan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish mazkur yangilanish jarayonlarini e’tirof etar ekan, bu islohotlar O‘zbekiston xalqining asosiy huquqlarini ta’minlashga qaratilganini yuqori baholadi. Xo‘sh, keyingi yillardagi o‘zgarishlar sabab qanday huquqlarimiz tiklandi, mustahkamlandi?

Davomi 3-betda

Ogohlik qo‘ng‘irog‘i

O‘ZGARAYOTGAN OLAM Unda yoshlar qanday yo‘l tutishi kerak?



Dunyo yil, oy sayin emas, kun sayin o‘zgarmoqda. Ming yillar davomida shakllangan an‘analar, yutuqlar muayyan kuchlar tomonidan inqirozga uchratilmoqda. Bugun hamma narsani o‘zgartirishning iloji bor, degan tushuncha nazariyadan amaliyotga ko‘chdi. Bunga qanchadan qancha xalqlar goh ma’naviy, goh moddiy hujumga uchrayotgani hamda dunyo ahli bu xunrezliklarga ko‘niktirilayotganiga qarab xulosa chiqarish mumkin. Hozir ommaning diqqatini nazorat qilish dasturi hamma davrdagidan ko‘ra kuchliroq ishlayapti.

Qizig‘i, bu borada ham muayyan ma’noda harbiy, ya’ni jahon ahli e’tiborini frontlarga bo‘lib yuborish usulidan foydalanilmoqda. Lo‘nda aytganda, dunyo aholisining sodir bo‘layotgan yovuzliklarga bir musht bo‘lib qarshi turishiga yo‘l qo‘yilmayapti — manipulyatsiyaning mohiyati ham shunda. Sinchov nazar solsangiz, bugun hamma o‘zi bilan o‘zi andarmon — xalqlar,

millatlar muammolaridan ortib, yon-atrofga yordam berishi tobora qiyinlashgan. Bunday vaziyatda bashariyatning umumiy maqsadi g‘oyalar jangida yutuqmaslik hamda har qanday sharoitda ham o‘zlikni yo‘qotib qo‘ymaslik atrofida quriladi. Buning asosiy drayveri esa — YOSHLAR.

Davomi 5-betda

Inson qadri uchun

EʼTIBOR VA MEHR UMIDSIZLIKDAN QUTQARADI

Huvullagan hovli. Toʻrt devor orasida yolgʻiz xayol surib oʻtirgan Uljon ayaning tinchini darvozaning taqillagani buzdi. Keksalik oʻz kuchini koʻrsatgan momo oʻrnidan turib, darvozani ochguncha bir oz vaqt oʻtdi. Tashqarida mahalla raisi va yana bir-ikki faolni koʻrib, yolgʻizligini bildirmayotgan shu mutasaddilarga ich-ichidan minnatdorlik tuydi.

Uyga kirib, hol-ahvol soʻrashgandan keyin mahalla raisi muddaoga oʻtdi:

— Uljon aya, sizga bir xushxabarimiz bor. Endi yolgʻizlikdan va uy yumushlaridan qiynalmaysiz. Nuroniylarimizga ijtimoiy xodimlar birlashtirildi. Sizga ham shunday ijtimoiy xodim assistenti doim yordam beradi.

Uljon aya dastlab raisning soʻzlarini bir oz anglamadi. Faollar batafsil tushuntirib bergach, yana bir bor shukrona aytdi.

— Qanday boʻlarkan-a?..

— Hech xavotir olmang, issiq-suvugʻingizdan xabar olib, yordam beradigan odam ham mahallamizdagi xotin-qizlar orasidan tanlab olinadi. Endi bizga ruxsat bering, mahallamizda parvarishga muhtoj yana 5-6 yolgʻiz va nogironligi boʻlgan fuqarolarga ham bu xushxabarni yetkazishimiz kerak.

Navbahor tumani Yangiobod mahallasida istiqomat qiluvchi 70 yoshdan oshgan Uljon Dushanova taqdir taqozosi bilan bugun yolgʻiz oʻzi istiqomat qiladi. Oʻn ikki yildan buyon shunday sharoitda yashab, yolgʻizlik tufayli hayotning turli sinovu qiyinchiliklariga duch keldi. Qolaversa, kishi yoshi oʻtib borar ekan, tobora oʻzgalar parvarishiga, mehrga muhtoj boʻlib boraveradi. Mahalla mutasaddilari, faollari va qoʻni-qoʻshnilar uning holidan xabar olib turadi.

Prezidentimizning 2023-yil 27-dekabrda “Oʻzgalar parvarishiga muhtoj keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori Uljon Dushanova kabi fuqarolar uchun ayni muddao boʻldi. Qaror asosida joriy yil 1-martdan oʻziga oʻzi xizmat koʻrsatish, mustaqil harakatlanish va moʻljal olish imkoniyati cheklangan yolgʻiz keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarga ijtimo

iy xodimlar assistentlari soatbay asosda haftaning barcha kunlari xizmat koʻrsatishi uchun moslashuvchan ish tartibi joriy etildi.

Navbahor tumanida ham “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan oʻzgalar parvarishiga muhtoj, yolgʻiz yashovchi hamda yolgʻiz keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslar reyestri yuritilyapti. Ayni vaqtda tumanda yashayotgan ana shunday 79 shaxsga eʼtibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatib kelinmoqda.

— Tumanimizdagi oʻzgalar parvarishiga muhtoj fuqarolarning barchasiga ijtimoiy xodimlar assistenti birlashtirildi. Shuningdek, tegishli qaror asosida bu toifaga bir

Bugun viloyat boʻyicha oʻzgalar parvarishiga muhtoj 576 shaxs “Yolgʻiz keksa” reyestriga kiritilgan. Ularga 80 ijtimoiy xodim assistenti ijtimoiy-maishiy xizmat koʻrsatib kelmoqda. Shuningdek, joriy yilning oʻtgan davrida yolgʻiz yashovchi keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslardan 10 nafariga sihatgohga bepul yoʻllanmalar ajratildi, 34 nafari esa muhtojligiga qarab zarur reabilitatsiya vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan taʼminlandi. Bundan tashqari, madaniy hordiq chiqarishi uchun sport va madaniy tadbirlar oʻtkazilib, 133 yolgʻiz fuqaroning qoʻshni viloyatlar va hududdagi turli tarixiy qadamlar hamda dam olish maskanlariga sayohati uyushtirildi.

Mutasaxxisslar ijtimoiylashuvning ahamiyatini kuzatish maqsadida qushlarda kichik tajriba oʻtkazgan. Qanoti singan qushni sogʻlom qushlar orasiga qoʻyib yuboradi va bir necha kun kuzatadi. Uchishga imkonsiz qush xona



qator imtiyoz va imkoniyatlar berilgan. Sogʻlomlashtirish maskanlariga yoʻllanmalar berish va ularga ijtimoiy xodim assistenti hamrohlik qilishi hamda barchasi bepul boʻlishi belgilangan, — deydi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi Navbahor tumani boʻlimi xodimi Navbahor Yusupova.

Agrar tarmoq

GʻALLADAN BOʻSHAGAN YERDA PAXTA YETISHTIRILADI

Mutasaxxisslar fikricha, yoz jazirasida yerga chigit ekib, hosil olish qishloq xoʻjaligida kuzatiladigan noyob hodisa. Chunki bu gʻoʻza vegetatsiyasi bilan bogʻliq agroteknika izchil parvarishni taqozo etadigan holat. Oʻtgan yillarda Buxoro viloyatida yoz faslida chigit ekib, paxta yetishtirish tajribasi shakllangan va bu oʻzini oqlashi aytilmoqda. Soha masʼullari hisob-kitobiga koʻra, Olot tumanida gʻalladan boʻshagan yerda parvarishlanadigan “S-37-47” navli gʻoʻzadan kech kurza borib, 1500 tonnadan ziyod paxta xomashyosi olinishi koʻzda tutilmoqda.

Ayni vaqtda olotlik dehqonlar gʻalla hosilini yigʻib olish ishlarini yakuniga yetkazmoqda. Gʻalladan boʻshagan maydonning bir qismida chigit ekish ishlari ham jadal boshlangan. Aniqliq, joriy mavsumda olotlik mirishkorlar gʻalladan boʻshagan ming gektar maydonda paxta yetishtirishga kirishgan. Buning uchun gʻalladan boʻshagan yer somondan tozalaniib, tuproq namligini saqlagan holda chigit ekilmoqda.

Qishloq xoʻjaligida koʻp yillik tajribaga ega olotlik mirishkorlar keyingi yillarda jami 18 ming 135 gektar yerda dehqonchilik qilayotir. Joriy yilda shundan 7652 gektarida sanoat uchun 15 ming 370 tonnadan ortiq paxta yetishtirish koʻzda tutilgan. Shuningdek, hududda 5369 gektardan ortiq yerda davlat xaridi boʻyicha

Hududlar hayoti

IMKONSIZLIK BUGUNNING GAPI EMAS

Xalq orasida “Mamiyning keng dalasi” deya ataluvchi Shumanay azaldan goʻzal tabiati, mehnatsevar odamlari bilan mashhur. Talabalik davrimizning muayyan qismi Shumanayning paxta dalalarida oʻtgan. Shu bois, tumanni ancha yaxshi bilaman. Yana shuni bilamanki, bugun Shumanay kechagidek faqat paxtachilikka ixtisoslashtirilgan, odamlari faqat paxta yetishtiradigan tuman emas. Vaholanki, chorak asr ilgari ushbu hududda iqtisodiy rivojlanishning boshqa imkoniyati yoʻq edi.

Mamlakatimizda kechayotgan izchil islohotlar tufayli tumanda zamonaviy maktabgacha taʼlim tashkilotlari, maktab binolari qurilmoqda, biznesning istiqbolli yoʻnalishlarini rivojlantirish, qishloq xoʻjaligida yangi yerlar ochish, mahallalarni oʻzlashtirish, tibbiy xizmatni yaxshilashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Qisqasi, 57 mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan tuman soʻnggi 5-6 yil ichida juda katta oʻzgarishlarga yuz tutdi.

Prezidentimizning Qoraqalpogʻiston-ga 2017-yilgi tashrifi chogʻida berilgan topshiriqidan soʻng “Prom Servis Shomanay” korxonasi tomonidan loyiha qiymati 1 milliard soʻm, yillik quvvati 2 million 400 ming dona polietilen qop ishlab chiqarish loyihasiga kirishildi. Xorijdan zamonaviy asbob-uskunalar keltirildi. Natijada 2019-yil mart oyida korxona ishga tushirildi. Bu nafaqat 30 kishining bandligi taʼminlandi, balki hududga sanoat kirib keldi.

— Necha yillardan buyon uyda oʻtirgan edim, — deydi “Mamiy” ovul fuqarolar yigʻinida yashovchi Gulparcha Bekbergenova. — Ilojimiz ham yoʻq, chunki hududda tayinli ish topishning oʻzi amrimahol edi. Korxona ishga tushishi bilan doimiy daromadga ega boʻldim. Ishxonamiz uyimizga yaqin. Har kuni 3,5-4 ming dona qop tikamiz. Maoshlarimiz ham yaxshi.

Davlat rahbarining oʻsha safaridan keyin tumanda loyiha qiymati 135,633 milliard soʻm, yillik quvvati 7400 tonna

Hududlar hayoti

IMKONSIZLIK BUGUNNING GAPI EMAS

Xalq orasida “Mamiyning keng dalasi” deya ataluvchi Shumanay azaldan goʻzal tabiati, mehnatsevar odamlari bilan mashhur. Talabalik davrimizning muayyan qismi Shumanayning paxta dalalarida oʻtgan. Shu bois, tumanni ancha yaxshi bilaman. Yana shuni bilamanki, bugun Shumanay kechagidek faqat paxtachilikka ixtisoslashtirilgan, odamlari faqat paxta yetishtiradigan tuman emas. Vaholanki, chorak asr ilgari ushbu hududda iqtisodiy rivojlanishning boshqa imkoniyati yoʻq edi.

Mamlakatimizda kechayotgan izchil islohotlar tufayli tumanda zamonaviy maktabgacha taʼlim tashkilotlari, maktab binolari qurilmoqda, biznesning istiqbolli yoʻnalishlarini rivojlantirish, qishloq xoʻjaligida yangi yerlar ochish, mahallalarni oʻzlashtirish, tibbiy xizmatni yaxshilashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Qisqasi, 57 mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan tuman soʻnggi 5-6 yil ichida juda katta oʻzgarishlarga yuz tutdi.

Prezidentimizning Qoraqalpogʻiston-ga 2017-yilgi tashrifi chogʻida berilgan topshiriqidan soʻng “Prom Servis Shomanay” korxonasi tomonidan loyiha qiymati 1 milliard soʻm, yillik quvvati 2 million 400 ming dona polietilen qop ishlab chiqarish loyihasiga kirishildi. Xorijdan zamonaviy asbob-uskunalar keltirildi. Natijada 2019-yil mart oyida korxona ishga tushirildi. Bu nafaqat 30 kishining bandligi taʼminlandi, balki hududga sanoat kirib keldi.

— Necha yillardan buyon uyda oʻtirgan edim, — deydi “Mamiy” ovul fuqarolar yigʻinida yashovchi Gulparcha Bekbergenova. — Ilojimiz ham yoʻq, chunki hududda tayinli ish topishning oʻzi amrimahol edi. Korxona ishga tushishi bilan doimiy daromadga ega boʻldim. Ishxonamiz uyimizga yaqin. Har kuni 3,5-4 ming dona qop tikamiz. Maoshlarimiz ham yaxshi.

Davlat rahbarining oʻsha safaridan keyin tumanda loyiha qiymati 135,633 milliard soʻm, yillik quvvati 7400 tonna

IMKONSIZLIK BUGUNNING GAPI EMAS

Xalq orasida “Mamiyning keng dalasi” deya ataluvchi Shumanay azaldan goʻzal tabiati, mehnatsevar odamlari bilan mashhur. Talabalik davrimizning muayyan qismi Shumanayning paxta dalalarida oʻtgan. Shu bois, tumanni ancha yaxshi bilaman. Yana shuni bilamanki, bugun Shumanay kechagidek faqat paxtachilikka ixtisoslashtirilgan, odamlari faqat paxta yetishtiradigan tuman emas. Vaholanki, chorak asr ilgari ushbu hududda iqtisodiy rivojlanishning boshqa imkoniyati yoʻq edi.

Mamlakatimizda kechayotgan izchil islohotlar tufayli tumanda zamonaviy maktabgacha taʼlim tashkilotlari, maktab binolari qurilmoqda, biznesning istiqbolli yoʻnalishlarini rivojlantirish, qishloq xoʻjaligida yangi yerlar ochish, mahallalarni oʻzlashtirish, tibbiy xizmatni yaxshilashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Qisqasi, 57 mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan tuman soʻnggi 5-6 yil ichida juda katta oʻzgarishlarga yuz tutdi.

Prezidentimizning Qoraqalpogʻiston-ga 2017-yilgi tashrifi chogʻida berilgan topshiriqidan soʻng “Prom Servis Shomanay” korxonasi tomonidan loyiha qiymati 1 milliard soʻm, yillik quvvati 2 million 400 ming dona polietilen qop ishlab chiqarish loyihasiga kirishildi. Xorijdan zamonaviy asbob-uskunalar keltirildi. Natijada 2019-yil mart oyida korxona ishga tushirildi. Bu nafaqat 30 kishining bandligi taʼminlandi, balki hududga sanoat kirib keldi.

— Necha yillardan buyon uyda oʻtirgan edim, — deydi “Mamiy” ovul fuqarolar yigʻinida yashovchi Gulparcha Bekbergenova. — Ilojimiz ham yoʻq, chunki hududda tayinli ish topishning oʻzi amrimahol edi. Korxona ishga tushishi bilan doimiy daromadga ega boʻldim. Ishxonamiz uyimizga yaqin. Har kuni 3,5-4 ming dona qop tikamiz. Maoshlarimiz ham yaxshi.

Davlat rahbarining oʻsha safaridan keyin tumanda loyiha qiymati 135,633 milliard soʻm, yillik quvvati 7400 tonna

Gʻolib ABDUSALOMOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Buyuk o‘zbek yo‘li

DUNYOGA YUZ OCHGAN
O‘ZBEKISTON

Boshlanishi 1-betda

Shu yil bahorda qiziq holat bo‘ldi. O‘n uch yashar o‘g‘lim maktab hovlisiga ko‘chat ekkani, bu majburiy mehnat ekani haqida aytdi. U shunday ohangda gapirdiki, o‘sha zahoti ularni ishlashga “majbur” qilgan o‘qituvchini so‘roqqa torttirishim kerak edi. Ammo unga hashar bilan majburiy mehnatning farqi, daraxt ekishning foydasi haqida aytdim. Tag‘in o‘yay ketdim: uzoqqa bormaylik, o‘g‘limdan 8-9 yosh katta bolalar uning yoshida majburiy mehnat tushunchasini bilarmidi? Yo‘q, ular ham biz kabi o‘qituvchilar bilan bir safda paxta terimiga chiqar edi.

Yangi O‘zbekistondagi eng katta ijobiy o‘zgarishlardan biri, shubhasiz, paxta terimi mavsumidagi majburiy mehnat, ayniqsa, bolalar va ayollar mehnatiga barham berilgani bo‘ldi. Ayni paytda hamshiralalar, yoshlarga ilm beradigan o‘qituvchilar faqat o‘z vazifasi bilan shug‘ullanyapti. Kimdir ularni xizmat vakolatidan tashqari ishga jalb etsa, o‘z haq-huquqini himoya qilmoqda. Chunki shunday natijadorlikka erishish uchun, avvalo, huquqiy asos yaratildi. So‘ng izchil targ‘ib etildi.

O‘sha vaqtlarda majburiy mehnatga jalb qilinganlik haqida tez-tez xabar berilardi. Chunki islohotlar ko‘lamini, uning ortga qaytmas yo‘ldan ketayotganini quyi bo‘g‘indagi mas‘ullar birdan to‘la anglab yetgani yo‘q edi. O‘zgarishlarni barcha birdek to‘la qabul qilishga qiyalishi esa tabiiy.

Davr insonlar qarashi bilan o‘zgarishlarga yuz tutadi. Bir paytlar majburiy mehnatni tabiiy qabul qilardik. Bugun uning inson huquqlari ta‘minlanishi ekanini to‘la angladik. Hatto o‘n besh yoshga to‘lmagan bolalar shu haqidagi tushunchaga ega bo‘ldi. Natijada o‘zbek paxtasiga qo‘yilgan bo‘yot bekor qilindi. Xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimiz o‘rni sezilarli darajada yaxshilandi.

Endi dastlabki qadamlarda qotib qolish mumkin emasdi. Aksincha, munosib mehnat tamoyillarini ilgari surib, mehnat munosabatlarini xalqaro standartlarga olib chiqish kerak edi. Mazkur yo‘nalishdagi yangilanishlar esa aynan qonunlarning zamonga moslashishida ko‘rinadi.

Vaqt o‘tishi bilan majburiy mehnatga qarshi kurashga doir hujjatlar ham takomillashdi. Birgina misol: Prezidentimizning 2019-yil 30-iyuldagi farmoni bilan bu borada qator islohotlar belgilandi. Vazifalar bajarilib, marraga erishilgach, yangi davrga mos keyingi qadamlar belgilab olindi. Uni amalga oshirish uchun esa 2023-yil 21-dekabrda “Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi.

Inson huquqlari haqida gap ketganida fuqarolik berish borasidagi o‘zgarishlarni ham ta’kidlash kerak. Uzoq yillardan beri yurtimizda yashab, o‘qib, ishlab kelayotgan, lekin fuqarolik huquqlaridan foydalanish imkoni bo‘lmagan yurtodoshlarimiz hayoti tubdan o‘zgardi.

Aslida, ular o‘zini O‘zbekiston fuqarosi sanar va bu rasmiy jihatdan qayd etilishini chin qalbdan istardi. Ular orzu qilib kelgan maqsadlariga erishdi. Juda ko‘plab yurtodoshlarimiz saylash, saylanish kabi fuqarolik huquqlaridan foydalanmoqda.

Bundan tashqari, turli sabablar bilan yurtidan olisda og‘ir vaziyatga tushib qolgan o‘zbekistonliklarga ham katta e’tibor berildi. Jumladan, “Mehr” insonparvarlik operatsiyalari amalga oshirildi. Natijada ayollar va bolalar qurolli to‘qnashuvlar kechayotgan mojaroli hududlardagi lagerlardan qaytarildi. Ular jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun barcha imkoniyat yaratildi, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy ko‘mak berildi.



Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro hamjamiyat tomonidan haqli ravishda **“Boshqa davlatlar uchun o‘rnak bo‘ladigan namunadir”**, deya e’tirof etildi. Bunday e’tirof va O‘zbekiston sa’y-harakatlarining yuqori baholanishi bejiz emasligini mamlakatimiz BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (ECOSOC) tarkibiga hamda Xalqaro mehnat tashkilotining Ma’muriy kengashiga saylangani, O‘zbekiston vakili birinchi marta BMT Inson huquqlari qo‘mitasi a’zosi bo‘lgani ham isbotlaydi.

Umuman olganda, **o‘tgan qisqa vaqtda inson huquqlari borasida yurtimizda ko‘p-lab islohotlar amalga oshirildi. Ammo ular xuddi majburiy mehnat kabi har kuni ham eslanmaydi.** Shu o‘rinda yana bir savol tug‘iladi: inson huquqlari nimalardan iborat?

Biz ko‘pincha bu savolga ta’lim olish, qulay mehnat sharoitida ishlash, saylovlarda qatnashish kabilarni sanaymiz. Hech shubhasiz, bular inson huquqlari debochasi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarziga to‘la amal qilib yashay olish ham insonning huquqidir. Inson qadri uchun boshlangan

Mamlakatimizdagi islohotlar ko‘lami va dunyo ahlini o‘ziga qaratayotgan bu kabi jihatlarni yana uzoq sanashimiz mumkin. Ammo bularning barchasi borib bitta nuqtada birlashadi. U ham bo‘lsa, ajdodlar orzu qilgan komil inson qiyofasi, so‘z va amal birligidir.

islohotlarning keyingi bosqichida aynan shu jihatlariga ko‘proq e’tibor berilmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash shular jumlasidan.

Oziq-ovqat xavfsizligi

Oxirgi yillarda dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qiyofasi tubdan o‘zgardi. Hamon to‘xtamayotgan urushlar, sanoat, ishlab

chiqarishdagi befarqlik kabi o‘nlab sabablar tufayli iqlim o‘zgarishi avj oldi.

Mamlakatimizdagi o‘zgarishlar nafaqat milliy, balki xalqaro manfaatlarni ham himoya qilishga qaratilgan. Masalan, xalqaro minbarlarda davlatlarni ekologik masalalarga jiddiy e’tibor berishga chaqiryapmiz. Ayni damda so‘z va amal birligi timsolida Orolning qurigan tubiga ekilgan nihollar koinotdan ko‘rinish berdi.

Qolaversa, chiqindilarni qayta ishlash, tartibga keltirish borasida ham juda katta qadamlar tashlandi. Birgina misol: shu yil 4-yanvarda Prezidentimizning “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjat ekologik barqarorlikka xizmat qiladi. Uni o‘z-o‘zidan, oziq-ovqat xavfsizligi uchun tashlangan qadam ham deyish mumkin. Chunki faqat ekologik barqarorlik mavjud joyda toza, sifati mahsulot yetishtirish mumkin. Mazkur omillar bevosita iqtisodiyotga, barqaror rivojlanishga ta’sir qiladi.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish: **“O‘zbekistondagi islohotlarni kuzatar ekanmiz, to‘laqonli ravishda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos kelishiga iqrar bo‘ldik. Shu bilan birga, 2030-yilga qadar belgilangan kun tartibi aynan O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan strategik reja ham hamohang ravishda aks etganini ko‘rdik. Bu, albatta, fikrlarimiz, qarashlarimiz uyg‘unligidan, hamjihatligimiz yuqori ekanidan dalolat beradi”**, deganida shu jihatlarni ham nazarda tutgan edi.

Chunki keyingi yillardagi islohotlar sabab **Toshkentda BMTning yana bir maxsus muassasasi — Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro jamg‘arma vakolatxonasi ish boshladi.** Ayni paytda BMT bilan birgalikda oziq-ovqat xavfsizligi, kambag‘allik va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish hamda bioxilmaxillikni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Janob Guterish bejiz 2030-yilgacha belgilangan rejalarni hamohangligi haqida fikr yuritmaydi. Dunyoning notinch hududlarida oziq-ovqatga ehtiyoj qanchalik organini ko‘rib, kuzatib turibmiz. O‘rni kelganida insonparvarlik yordami ham beryapmiz. Shunday vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash har doimgidan ham muhim ekanini yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu ma’noda, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida bu borada muhim vazifalar belgilanib, tizimli tarzda amalga oshirilayotgani diqqatga sazovor.

Jumladan, **“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida ko‘lamli ishlar bajarildi.** Unga ko‘ra, 2024-yilda oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish chora-tadbirlar dasturini qabul qilish belgilangan. Bunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasini 25 foizdan oshirish ko‘zda tutilgan.

Ushbu band ijrosi to‘liq bajarildi. Davlatimiz rahbarining joriy yil 16-fevraldagi “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni asosida “O‘zbekiston Respublikasida 2024-2028-yillarda oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi. Dasturda mevasabzavotni 3,2 million tonnaga, go’shtni 450

Bugun xalqaro maydonda katta tajriba va ko‘nikmalarga ega shaxslar mamlakatimiz taraqqiyotini haqli e’tirof etishi kishini quvontiradi. Jumladan, BMT Bosh kotibi: **“Juda ko‘p insonlar Markaziy Osiyoni dunyo sivilizatsiyasining chorrahasi deb ataydi. Menimcha, bu yanglish fikr. Men Markaziy Osiyoni dunyo sivilizatsiyasining markazi deb bilaman. Bunga ishonch hosil qilish uchun Samarqand va Buxoroga borishning o‘zi kifoya qiladi”**, dedi.



ming tonnaga, sutni 3 million tonnaga hamda oziq-ovqat mahsulotlari ulushini 40 foizga yetkazish nazarda tutilgan.

Mo‘ljaldagi marrani zabt etish uchun esa sohada qator imkoniyatlar eshigi ochildi. Masalan, endi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari va eksport qiluvchilar tomonidan xorijiy davlatlarda savdo uyi va do‘konlarini ochish uchun alohida qarorlariz yiliga 50 ming AQSH dollarigacha mablag‘ni xorijiy hisobraqamlarga o‘tkazishga ruxsat berildi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni rivojlantirish agrar soha taraqqiy etishini taqozo qiladi. Shu bois, agrar sohani zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini qabul qilish belgilangan edi. Yil boshidan buyon ushbu band ijrosi ham bajarildi. Xususan, agrar sohani zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Dasturga ko‘ra, chorvachilik, sabzavot va polizchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishlarining mexanizatsiyalashganlik darajasi oshirildi. Qishloq xo‘jaligi texnikalarini mahalliydoshlar salmog‘i ham ortadi. Muhimi, milliy brend targ‘ibotiga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Mazkur islohotlar hozirgi global siyosiy jarayonlarda jaholatga qarshi ma’rifat bilan javob beradigan yangi O‘zbekistonning pozitsiyasini ifodalaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ko‘p qirrali, do‘stona munosabatlarni targ‘ib etgan mamlakat so‘zda ham, amalda ham egzulikni targ‘ib etadi.

Taraqqiyot ildiz otgan zamin

Biz haqli ravishda faxrlanamiz. Chunki boshqalar havas qilsa arziydigan ajdodlarimiz bor. Ularning hayot tutumiga ergashgan holda zamon bilan hamnafas bo‘lib, yorug‘ kelajak bunyod etilmoqda. Yangi uyg‘onish davriga ham aynan bugun poydevor qo‘yilyapti.

Xalqimizda “oqsoqol” degan ajoyib sifat bor. Odatda tajribasi katta, ko‘p davralardagi jiddiy suhbatlarda bo‘lgan odamlar shunday ataladi. Ularning gapi ko‘pincha hayotiy haqiqatlarni ifoda etishi bilan qadrlil bo‘ladi. Shu ma’noda, bugun xalqaro maydonda katta tajriba va ko‘nikmalarga ega shaxslar mamlakatimiz taraqqiyotini haqli e’tirof etishi kishini quvontiradi. Jumladan, BMT Bosh kotibi: **“Juda ko‘p insonlar Markaziy Osiyoni dunyo sivilizatsiyasining chorrahasi deb ataydi. Menimcha, bu yanglish fikr. Men Markaziy Osiyoni dunyo sivilizatsiyasining markazi deb bilaman. Bunga ishonch hosil qilish uchun Samarqand va Buxoroga borishning o‘zi kifoya qiladi”**, dedi.

Ajdodlarimiz dunyo ilm-faniga bemisal hissa qo‘shgan. Yangi O‘zbekistonda teng imkoniyat yaratish orqali ana shu shonli o‘tmishga munosib avlodlarni tarbiyalashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Xalqaro standart bo‘yicha umumiy ta’lim bepul qilingan. Hatto maktablarda davomlati to‘la ta’minlash uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.



Bundan tashqari, til, kasb-hunar o‘rganmoqchi bo‘lgan yoshlar davlat tomonidan bepul o‘qitilmoqda. Chunki ta’lim olish huquqini ta’minlab bo‘ldik, degan qarash bilan qotib qolganimiz yo‘q. Bu yangi O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekanini, shu orqali insonlarning huquqlarini to‘la ta’minlashga jiddiy e’tibor berilayotganidan dalolat.

Hech bir davrda mamlakatlar yolg‘iz o‘zi taraqqiy etmagan. Qaysidir davlatlar bilan oldi-berdi, do‘stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlagan. Shu orqali o‘zida yo‘q narsani xorijdan olish, yetarlicha mahsulotlarni boshqalarga sotish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishgan.

Iqtisodiy barqarorlik insonning barcha huquqlari ta’minlanishiga zamin yaratadi. Moddiy to‘kislik oziq-ovqat topishga, ta’lim olishga imkon beradi. Aynan shu jihat o‘zi istagan kasb bilan shug‘ullanish uchun qulay

sharoit ham yaratadi. Hozir vaqtigingizni olib bularni birma-bir sharhlashimiz shart emas. Zero, bular rad etib bo‘lmaz haqiqat. Demoqchimizki, yangi O‘zbekistonning dunyoga yuz ochishi, ayniqsa, yaxshi qo‘shnichilik siyosati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga jiddiy ijobiy o‘zgarishlar olib keldi.

BMT Bosh kotibi ta’biri bilan aytganda, **“Bugungi kunda esa mintaqada yangicha muhit yaratildi. Bu, albatta, do‘stlik, hurmat va masalalarni hamjihatlikda ko‘rib chiqish, mavjud qiyinchiliklarni birgalikda yengib o‘tishga asoslangan muhit bo‘ldi”**.

Yaxshi qo‘shnichilik, ko‘p qirrali, do‘stona tashqi siyosat tufayli turizm sohasi ham jadal rivojlandi.

— O‘zbekistonga xorijlik sayyohlarni yanada ko‘proq jalb qilish maqsadida viza rejimini soddalashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish, yangi yo‘nalishlarni ishlab chiqish, soha bilan bog‘liq loyihalarga investitsiya kiritish, yirik tadbirlar o‘tkazish kabi amaliy ishlar qilinmoqda, — deydi “Taraqqiyot strategiyasi” markazi bosh mutaxassisi Iskandar O‘roqboyev. — Masalan, 2023-yili umumiy qiymati 9,5 trillion so‘mlik 508 ta loyiha amalga oshirilgani hisobiga qariyb 9,5 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta xostel faoliyati yo‘lga qo‘yilib, jami joylashtirish vositalari soni 5,5 mingdan oshdi. Shuningdek, 452 ta oilaviy mehmon uyi ochilib, ularning umumiy soni 3,5 mingga yaqinlashdi. Sayyohlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ular soni 2649 taga yetdi.

2017-2023-yillarda O‘zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni yil sayin ortib bordi. Xususan, 2017-yili 2,7 million nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib, mazkur ko‘rsatkich 6,6 millionga yetdi. Bu esa 2017-yilga nisbatan o‘shish 2,5 barobar, 2022-yilga nisbatan esa 1,3 barobar bo‘lganini anglatadi.

Xo‘sh, qaysi sabablar tufayli dunyo ahli yurtimiz bo‘ylab sayohat qilishni istayapti?

Albatta, bu haqda gap ketganida ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar e’tirof etilishi kerak. Ammo bunday sharoit boshqa mamlakatlarda ham bor. Bu borada sayyoh uchun tanlov imkoniyati mavjud. Lekin u hududlar ajdodlari dunyo tamadduniga tosh qo‘ygan, mamlakati sivilizatsiyalar markazi bo‘lgan joy emas. Boz ustiga, yurtimizda inson huquqlari to‘la ta’minlanishi, bu yerda o‘zini xavfsiz va ishonchli his etishi ham sayyohlar e’tibor qaratadigan muhim jihat.

Mamlakatimizdagi islohotlar ko‘lami va dunyo ahlini o‘ziga qaratayotgan bu kabi jihatlarni yana uzoq sanashimiz mumkin. Ammo bularning barchasi borib bitta nuqtada birlashadi. U ham bo‘lsa, ajdodlar orzu qilgan komil inson qiyofasi, so‘z va amal birligidir.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Islohotlar amalda

ISTIQBOLLI LOYIHA VA tashabbuslar

chorvachilik tarmog‘ini yangi bosqichga olib chiqadi



Bahrom NORQOBILOV,
Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi raisi

Aslida, chorva boqish oson ish emas. Tarmoq rivoji doimiy e‘tiborda bo‘lishi, mazkur yo‘nalishda faoliyat yurituvchi xo‘jaliklar muntazam qo‘llab-quvvatlanishi, tarmoqdagi muammo va kamchiliklar tahlil qilinish, yechimlari berib borilishi kerak. Aksariyat davlatlar shu nuqtayi nazardan tarmoqni rivojlantirishga intiladi. O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishdagi ishlar muntazamlik kasb etayotgani bilan diqqatga sazovor. Natijada o‘tgan yili respublikamiz bo‘yicha birgina parrandachilik yo‘nalishida 253 ta loyiha amalga oshirilib, shu yumush bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar soni 1300 taga yetdi, 4 mingga yangi ish o‘rni yaratildi.

Tarmoqdagi eng muhim masala

Taqdimotda tarmoqdagi eng muhim va og‘riqli masala naslchilik ekani, go’sht yo‘nalishidagi parrandaning dastlabki genetikasi yo‘qligi kamchilik sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Oradan ikki kun o‘tib, Prezidentimizning “Parrandachilik sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori imzolandi.

Qarorda go’sht yo‘nalishidagi parrandaning 1-tartibli genetikasini tashkil etishga alohida urg‘u berildi. Xususan, jahon bozorida go’sht yo‘nalishidagi parranda genetikasining 80 foizi AQSHning “Aviagen Group” kompaniyasi hissasiga to‘g‘ri keladi. U bu borada katta tajribaga ega. 1923-yili tashkil etilgan kompaniyaning 2023-yildagi daromadi 700 million AQSH dollarini tashkil etgan.

Bugun O‘zbekistonda, umuman, Markaziy Osiyoda go’sht yo‘nalishidagi parrandaning 1-tartibli genetikasi yo‘qligi tufayli 2-tartibli genetikasi “Aviagen Group”ning Vengriyadagi korxonasidan olib kelinadi. Ayni paytda Markaziy Osiyo davlatlari har yili 31,5 million

Oziq-ovqat xavfsizligi — bugun dunyo miqyosida katta e‘tibor qaratilayotgan yo‘nalish. Zero, aholi soni ortib borishi, iqlim o‘zgarishi, ekologik vaziyatning tobora yomonlashayotgani mana shunday yondashuvni talab etmoqda. Sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishida esa chorvachilik alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, davlatimiz rahbari joriy yil 25-iyunda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishish chog‘ida ta’kidlaganidek, aholining kundalik iste’molida go’sht, tuxum, sut va ulardan tayyorlangan mahsulotlar katta o‘rin egallaydi. Shu bois, mamlakatimizda parrandachilik, qorako‘lchilik va echkichilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

dollarlik 3,5 million bosh nasli jo‘jani Vengriyadan import qilmoqda. Shundan 18 million dollari yoki 2 million boshi O‘zbekistonga to‘g‘ri keladi.

“Aviagen Group” kompaniyasining 1-tartibli genetikasi Rossiya, Turkiya, Xitoy va Pokistonda mavjud bo‘lib, ular 2-tartibli genetikani yetkazish bilan shug‘ullana-di hamda mintaqada parranda go’shti savdosini nazorat qiladi. Shu bois, yaqinda “Aviagen Group” kompaniyasi bilan to‘g‘ri-dan to‘g‘ri hamkorlik qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Qarorda, shuningdek, kichik quvvatli parrandachilik fermalari bilan kooperatsiya tizimiga asoslangan Agroparranda klasteri tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Shu asnoda Zomin, Baxmal, Bulung‘ur hamda G‘allaorol tumanlarida 1-tartibli genetik korxonasi tashkil etiladi. Parkent va Ohangaron tumanlarida esa 2-tartibli naslchilik xo‘jaligi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Yiliga 700 ming tonna omuxta yem ishlab chiqarish hamda yiliga 100 ming tonna parranda go’shtini qayta ishlovchi korxona barpo etiladi.

Bundan tashqari, 2030-yil 1-yanvargacha parrandachilik mahsulotlari yetishtiruvchi tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini (ekin maydonlaridan tashqari) to‘lashdan ozod etiladi. 2024-yil 1-iyuldan boshlab esa parranda go’shtini eksport qilishda barcha cheklov bekor qilinadi. Chunki hozirgacha bizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida parranda go’shtiga eksport cheklovi bo‘lgan. Parranda mahsulotlarini qayta ishlash darajasi esa juda past va eksport imkoniyatidan to‘liq foydalanilmayotgan edi. Shu bois, 2024-2025-yillarda parrandachilik mahsulotlari



eksport hajmini 2 barobar oshirish, ya’ni 28 million dollardan 55 million dollarga yetkazish mo‘ljallanmoqda.

Kooperatsiya tizimida parrandachilik mahsulotlari yetishtirishga doir “tayyor biznes” loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha butunlay yangi tizim qo‘llanadi. Bunday loyihalarni hayotga tatbiq etish uchun “Parrandasanoat” uyushmasi ta’sis qilindi. Birinchi bosqichda ilk loyihalar Sayxunobod va Ko‘kdala tumanlarida amalga oshiriladi.

Mashhur nomni tiklash mas’uliyati

Qorako‘l qo‘ylari nomi bir paytlar juda mashhur edi. Hududning qorako‘lchilik bo‘yicha



tajribasi hamda yetishtirgan mahsulotlari yetib bormagan bozor yoki xonadon yo‘q edi, hisobi. Lekin muayyan muddat bu nom esdan chiqdi. Sohadagi kamchilik va muammolar qorako‘lchilik rivojiga to‘sqinlik qildi.

Hozir yurtimizda 39 ta qorako‘lchilik xo‘jaligi bor. Buxoro viloyatidagi 2 million gektardan ziyod yaylovda 2 million bosh qo‘y boqilyapti. Bu, albatta, yetarli emas. Shu bois, taqdimotda qorako‘l qo‘yini kooperatsiya asosida xonadonlarda boqish taklifi bildirildi. Qorako‘l, Qorovulbozor, G‘ijduvon, Peshku, Jondor, Olot tumanlarida qo‘y yetkazib berilib, yaylov va quduqlar ajratiladi. Ozuqabop o‘simliklar maydoni kengaytiriladi. Bu kabi chora-tadbirlar orqali qorako‘l qo‘yini 7 million boshga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Tahillarga ko‘ra, o‘tgan yili qorako‘l naslchilik xo‘jaliklarida qo‘ylar soni 2022-yildagiga nisbatan 8 ming boshga ko‘paygan. Ikkita qorako‘l terisi hamda beshta junni qayta ishlash korxonasi tashkil etilib, yillik 100 ming dona teri hamda 3 ming tonna jun qayta ishlanmoqda. Yangi ish boshlagan olitita omuxta yem ishlab chiqarish korxonasida esa 60 ming bosh mayda shoxli molni ozuqa bilan ta’minlash imkoniyati yaratildi. 1,3 million dollarlik qorako‘l teri, jun, kigiz mahsulotlari xorij bozorida sotildi.

Yaylovlar degradatsiyasining oldini olish maqsadida 4 ming gektar yerda cho‘l-

yaylov ozuqabop o‘simliklarining urug‘chilik maydonlari tashkil etildi.

Umuman, ikki yilda Buxoro viloyatida aholi xonadonlarida qorako‘l zotli qo‘ylarni kooperatsiya usulida boqish bo‘yicha yangi mexanizm joriy qilinadi. Bunda qorako‘lchilikka ixtisoslashgan Qorako‘l, Qorovulbozor, G‘ijduvon, Peshku, Jondor, Olot tumanlari tumanlari yaylovi atrofida yashovchilarga 30 ming boshdan ortiq qo‘y qorako‘lchilik xo‘jaliklari tomonidan yetkazib beriladi. Qo‘ylar “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida ajratilgan mablag‘ hisobidan xarid qilinadi. Ularni boqish uchun 103 ming gektar yer ajratiladi. Suv bilan ta’minlash uchun esa “Yaylov xo‘jaliklarini rivojlantirish” uyushmasi tomonidan 100 ta quduq qazib beriladi. Ispaniyaning “Ovigen” hamda Portugaliyaning “Fertiprado” korxonalari Qorovulbozor va Jondor tumanlarida qorako‘l qo‘ylarni boqish hamda yaylov o‘simliklari urug‘chiligi pilot loyihasini amalga oshiradi.

Joriy yil noyabriga qadar Jondor tumanida “Buxoro qorako‘lchilik stansiyasi” tashkil etiladi. Bu yerda qorako‘lchilikni ilmiy asosda rivojlantirish, naslini yaxshilash maqsadida 4 ming bosh qorako‘l qo‘yi ko‘paytiriladi.

Asosiy boylik odamlar qo‘lida

Chorva — katta xazina. Uni ko‘paytirish orqali esa ana shu xazinani yanada to‘ldirib

borish mumkin. Chorva baraka hamdir. Qaysi hovlida biror qo‘y, qoramol yoki parranda parvarishlanayotgan bo‘lsa, bilingki, o‘sha xonadonda sut, qaymoq, go’sht kabi kundalik ehtiyoj uchun zarur mahsulotlar yetarli. Buning uchun ortiqcha xarajat qilish shart emas.

Bugun mamlakatimizda 41,3 million bosh uy hayvoni mavjud bo‘lsa, shundan 14 million boshi yirik shoxli, 24 millioni mayda shoxli chorva moli, 276 mingi ot, 21 mingi tuyadur. Yirik va mayda shoxli mollarning 10 foizi fermer xo‘jaliklarida, 90 foizi dehqon va shaxsiy xo‘jaliklarda boqilmoqda.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi huzurida 2023-yilda Hayvonlarni identifikatsiya qilish markazi tashkil etilib, 2024-2026-yillarda hayvonlarni identifikatsiya qilish chora-tadbirlari belgilandi. Hayvonlarni identifikatsiya qilish, elektron axborot tizimini takomillashtirish hamda unga kushxona va mol bozorlarini integratsiya qilish tadbirlariga Jahon bankidan 33 million dollar mablag‘ ajratilgan. Jahon hayvonlar salomatligi tashkiloti (WOAH) ko‘rsatmasiga asosan, hayvonlarni identifikatsiya qilish qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Mazkur tadbirlar mol egalari qo‘shimcha majburiyatlar yuklagani bois, sohadagi munosabatlarda qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurligi ayon bo‘lmoqda.

AQSH, Xitoy, Meksika, Turkiya, Rossiya, Belarus, Ukraina, Qozog‘iston, Moldova, Fransiya, Niderlandiya, Polsha, Chexiya, Yangi Zelandiya singari davlatlarda hayvonlarni identifikatsiya qilish masalalari qonun bilan tartibga solingan.

Shuningdek, Jahon savdo tashkiloti talabiga ko‘ra, chorvachilik oziq-ovqat mahsulotlari (go’sht va sut mahsulotlari) xavfsizligini ta’minlash, ularni eksport qilish uchun hayvonlarni ro‘yxatga olish majburiydir. Qolaversa, hayvonlar identifikatsiya qilingan mamlakat chorva kasalliklaridan xoli hududga aylanib, profilaktika va epizootik holat bo‘yicha ma’lumotlar elektron monitoring qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hayvonlarni identifikatsiya qilish, birinchi navbatda, iste’molchilar salomatligi va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash hamda epizootik tadbirlarni qayd etish uchun ham zarur jarayondir.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining shu yil 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi doirasida Pop tumanida qo‘mitamiz huzuridagi Naslchilik ilmiy-ishlab chiqarish markazining Pop tumani filiali tashkil etildi.

“Kayral” naslchilik xo‘jaligi (Tog‘li Oltoy Respublikasi)dan “Altayskaya belaya puxovaya” zotli ming bosh nasli echki olib kelindi. 2025-yil martida uni soni 5 ming, kelgusida 15 ming boshga yetkaziladi.

Hozir Namangan viloyati hokimligi bilan birgalikda uy sharoitida echki boqib ko‘paytirish va kasanachilik asosida jundan tayyor mahsulot ishlab chiqarish istagi mavjud xonadonlar o‘rganilmoqda. Nasli echkilari arzon narxda “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida aholiga ajratiladigan 33 million so‘m (20 bosh echki) imtiyozli kredit asosida tarqatiladi.

Mo‘g‘uliston tajribasi asosida jun yetishtirish yo‘nalishida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Namangan, Toshkent viloyatlarida 5 ming boshdan jami 25 ming bosh jonivordan iborat echkichilik klasterlari tashkil etiladi.

Chorvachilik yo‘nalishidagi bu kabi loyiha va tashabbuslar tarmoq taraqqiyotini ta’minlash barobarida, iqtisodiyotimiz barqarorligi, odamlar turmushi yaxshilanishiga ham munosib hissa qo‘shadi, albatta.

Kun mavzusi

“...U davrlarda har kuni maxsus mashinada non tarqatilib, bir oilaga bitta buxankadan ortiq berilmasdi. Oq non kelgan kun biz uchun bayram edi. Dehqonchilikning hadisini olgan xalq bo‘lsak-da, do‘konlarda un, non mahsulotlari taqchil bo‘lardi. Hozirgidek turli-tuman non qayoqda deysiz...”.

Dasturxon atrofida to‘planganda keksalar aytib beradigan bu gaplar o‘rta va katta yoshlilarning hamon yodida. Uncha ishonmasak-da, o‘sha qiyinchiliklarni xuddi ko‘rgandek tinglardik. Hozir aytasangiz, yoshlar uchun bu ertakdek eshitiladi. Bugun xonadonlarda bunday gaplar aytilmay ham qoldi. Endi subhatlarimiz bozorlarimizning to‘kin-sochinligiyu do‘konlardagi xilma-xil oziq-ovqat mahsulotlari, anqoning urug‘idan boshqa topladigan har turdagi noz-ne‘matlar haqida beradi.

To‘g‘ri-da, bugun shularni gapirsak arziydi. O‘zbekiston keyingi yillarda qishloq xo‘jaligini tubdan takomillashtirib, sohada katta yutuqlarga erishayotgan davlatlar qatoriga qo‘shildi. Dehqon va fermerlarimiz haqiqiy tadbirkorga aylandi. Endi mevasabzavotni nafaqat yetishtirish, balki qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirishda ham ilg‘orlar safidamiz. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga ilmiy yondashuv unumdorlik va hosildorlikni tobora oshiryapti.

Ilg‘or texnologiyalar rivojlangani sari sohalar ham tarqagiy etib boraveradi. Qishloq xo‘jaligida buni yanada soddaroq tushuntirish mumkin. Masalan, yer haydash, ekinni istalgan vaqt va sharoitda ekish, ariqqa qachon suv kelsa, o‘shanda sug‘orish qayoqdayu, mana



shularning barchasini ilmiy asoslangan texnologiyalar, resurstejamkor qurilmalar yordamida aniq bajarish qayder. O‘rtadagi farqi nafaqat soha mutaxassislari, balki oddiy odamlar ham allaqachon tushuna boshladi.

Masalan, bu yil g‘alla hosili uchun biologik eskirgan navlar o‘rniga yangi serhosil va ob-havoning noqulay sharoitiga chidamli kuzgi bug‘doy navlari maydoni 585 ming gektarga kengaytirildi. Ekish mavsumida 105 ming gektar maydon zamonaviy lazerli texnologiya yordamida tekislanib, 300 ming gektardan ortiq ochiq maydonga ilg‘or don ekish seyaklarida ekildi. Natijada belgilangan hajmdagi bug‘doy barcha hududda 15-16 ish kunida jamg‘arildi. Zamonaviy texnikalardan foydalanish ekish ishlarini o‘tgan yillarga nisbatan 10-12 kun erta yakunlash imkonini berdi. Shuningdek, suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish uchun subsideiya ajratilgani tufayli yomg‘irlatib sug‘orish tizimi o‘rnatilgan g‘alla maydonlari yanada kengaydi.

Hozirgi dehqon va fermerlar har qarich yerdan unumli foydalanishni biladi. Bir yilda bir hosil olib, qolgan vaqtda shuning daromadiga kun ko‘radigan davrlar o‘tdi. Bugun yer egalari yiliga 2-3 marta hosil olib, daromadini bir necha barobar oshirishni yaxshi uddalayapti.

Dalalarda g‘alla o‘rim-yig‘imi hali davom etayotgan bo‘lsa-da, bo‘shagan maydonga peshma-pesh takroriy ekinlar ekilyapti. Qishloq



aholining aksariyati shu vaqtni kutadi. Chunki g‘alladan bo‘shagan yer talabgorlarga takroriy ekin ekish uchun bo‘lib berilib, yoshlar va ayollarning mavsumiy bandligini ta’minlash, daromad to‘pishida muhim omil bo‘ladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda har yili bir million gektardan ortiq maydonda bug‘doy va arpa yetishtiriladi. Bu ozmuncha maydon emas va uni bahorgacha bo‘sh qoldirish yaramaydi. Shuning uchun kuzgi bug‘doy hosili yig‘ishtirib olingach, o‘rniga takroriy ekin ekib, daromad qilish imkoni paydo bo‘ladi. Odatda takroriy ekin sifatida aholining kundalik oziq-ovqat talabini qondiradigan don, dukkakli don, sabzavot, chorva uchun yem-xashak yetishtiriladi. Bu yerdan samarali foydalanish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligi hamda bozorlar to‘kinligini ta’minlashga xizmat qiladi.

— Bu yil g‘alladan bo‘shagan 923 ming gektar maydonga takroriy ekin ekish rejalashtirilgan, — deydi O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bo‘lim boshlig‘i Zokir Allamurodov. — Hozirga qadar 595 ming gektarga dukkakli, ozuqa ekini, sabzavot, kartoshka, poliz va sholi ekilib, sug‘orish ishlari boshlab yuborildi. Ahamiyatlisi, endi bu yerdan yoshlar, aholi daromad to‘pish maqsadida foydalanadi. Mamlakatimizning barcha viloyatidagi fermer xo‘jaliklarining bo‘shagan g‘alla maydoni ekinsiz qoldirilmaydi. Ishsiz fuqarolar, dehqonchilik qilish niyatidagi yosh oilalar oziq-ovqat mahsulotlari hamda chorva uchun ozuqa yetishtiradi. Ayniqsa, bu yil 500 mingdan ortiq yoshning takroriy ekin ekishda mavsumiy bandligi ta’minlanadi. Xususan, davlatimiz rahbarining shu yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning

daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan talabgor yigit-qizlarga 60 ming gektar yer ijaraga berildi. Ularning mehnat unumdorligini oshirish, yerdan samarali foydalanishini ta’minlash uchun O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi jamg‘arma tomonidan 1 257 yoshga mini texnika, urug‘ va ko‘chat uchun 30,4 milliard so‘m kredit ajratildi.

Takroriy ekinda baraka bo‘ladi. Odamlar o‘zi biladigan, tushunadigan ekin turi, sabzavot yoki don mahsulotini yetishtirib, bozorga olib chiqadi, sotib daromad topadi. Shu bois, g‘alladan bo‘shagan yerni ijaraga olishga talabgorlar doim ko‘p bo‘ladi. Birgina Namangan viloyati misolida olsak, joriy mavsumda g‘alladan bo‘shagan 73 ming 555 gektar maydonga takroriy ekin ekiladi. Bo‘shagan yerni aholiga berish ham boshlab yuborilgan.

Masalan, To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “Tursunboy Komilov” fermer xo‘jaligiga qarashli 50 gektar maydon 25 yosh oilaga dehqonchilik qilish uchun ajratildi. Pop tumanidagi “Hazrati Hasan” fermer xo‘jaligining hosili yig‘ishtirib olingan 30 gektar yerida 30 fuqaro dehqonchilik qiladigan bo‘ldi. Mazkur tumanning “Fayz baraka uyg‘ur” hamda “Abrorbek Shohruhmirzo” fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi 78 gektar

maydon ham takroriy ekin ekish uchun 63 oila ixtiyoriga beriladi. Yerni ijaraga olgan fuqarolarga ekin ekishdan tortib, mahsulotni yig‘ishtirib olgungacha bo‘lgan jarayonda mutaxassislar tavsiya berib ko‘mlashadi. Buning uchun hududiy ishchi guruhlar tashkil etilgan. Ular Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi mutaxassislari bilan hamkorlikda takroriy ekin ekish uchun yer tayyorlash, ekish, moddiy-texnik resurslar ta’minoti, agrotexnik tadbirlarni sifatli o‘tkazish, yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xaziraga olish, ichki va tashqi bozorga yetkazib berish bo‘yicha amaliy ko‘mak va tavsiyalar beradi.

— G‘alladan bo‘shagan yerga takroriy ekin ekish oxirgi yillarda keng joriy etilib, aholi bandligi va farovonligini oshirishda muhim omillardan biriga aylandi, — deydi Zokir Allamurodov. — Bu amaliyot yerdan unumli foydalanish va maydon birligidan ko‘p miqdorda qishloq xo‘jaligi mahsuloti olishga imkon beradi. Asosiysi, yerga qadalgan urug‘dan shu yilning o‘zida hosil olinadi. Ekinlar turi ob-havo, iqlim sharoiti, bozor talabi kabi qator omillar asosida tanlanadi. Joriy yilda takroriy ekin sifatida asosan, makkajo‘xori, jo‘xori, no‘xat, mosh va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishni tavsiya qilaymiz.


Bugun yurtimizda ish bilan band aholining 25 foizi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuritayotgani aytilmokda. Ularning ko‘pi soha imkoniyatidan qo‘shimcha daromad to‘pish uchun foydalanayotgani quvonarli. Nafaqat, dehqon va fermer, balki tomorqa egalari ham xonadonida mahsulot yetishtirib, o‘zini o‘zi band qilgan holda daromad topayapti. Bu borada mamlakatimizda o‘ziga xos tajriba maktabi shakllandi.

Joriy yilda yurtimizda dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish hajmi 4 foiz o‘shishi kutilmoqda. Bunda yer bilan tillashtirgan har bir kishining hisssasi bo‘ladi. Yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari esa dasturxonimiz to‘kinligini ta’minlab, iqtisodiy farovonligimizga xizmat qiladi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Ogohlik qo‘ng‘irog‘i



O‘ZGARAYOTGAN OLAM

Unda yoshlar qanday yo‘l tutishi kerak?

Katta qamrov —
katta natija, degani

Katta hayotga endi qadam qo‘yayotgan yigit-qizga ma‘rifat eshigini yopsangiz, unga kimdir jaholat eshigini, albatta, ko‘rsatib yuboradi. Ya‘ni yaxshilik ham, yomonlik ham muttasil tarafdorlarini izlaydi. Bugun yoshlarni ma‘rifatga oshno qilish siyosat darajasidagi masalaga aylandi. O‘zbekiston esa bu boradagi sa‘y-harakatlari bilan yuqori natijalar qayd etayotir. Davlatimiz har bir yoshning bandligini ta‘minlash bo‘yicha allaqachon katta tajribaga ega bo‘lib ulgirdi.

Bugun hech qaysi o‘g‘il-qiz e‘tibordan chetda emas. Yoshlarning iqtidori, imkoniyati hatto eng quyi boshqaruv bo‘g‘ini — mahalla darajasiga tushib o‘rganilmoqda. Bu juda to‘g‘ri qaror. Axir kimdir yoshlarimizni tafakkuridan mosuvo etishga tinmay harakat qilayotgan bir pallada bunga jim tomoshabin bo‘lib qarab turish sog‘lom aqlga yarashadimi?

Bu yerda erishilayotgan natijalarni qayd etib, uzundan-uzun raqamlarni ilova qilishdan yiroqmi. Sababi, barchamiz bularning amaldagi ifodasini yon-atrofimizda ko‘rib-bilib yuribmiz. Qanchadan-qancha ishsiz yoshlarimiz kasb-hunar maktablarida o‘qitilaypti, ishga joylashtirilaypti. Bir paytlar qo‘lida tayinli hunari va bilimi yo‘qligi tufayli xorijga ishga ketishga

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Yashash — mas‘uliyat, degani. Yosh bo‘lish, kelajakdagi ehtimoliy kutilmalarga tayyorlanish esa ikki hissa mas‘uliyat. Ma‘naviy xurujlarning nishoni, avvalo, yoshlar dunyoqarashiga qaratilayotgani ham shundan. Bunday vaziyatda mamlakatlar o‘z yoshlarini himoya qilish uchun nimalar qilishi lozim, degan savoldan oldin, avvalo, bugungi yoshlar o‘zi kim, degan klassik savolga yana bir bor javob topishimiz kerak.

Yoshlarga insoniyat tamaddunining boshidan buyon ertangi kunning egasi sifatida qarab kelingan. Aynan shu qarash sivilizatsiyalarning asosi edi, ya‘ni ko‘p narsa bilgan avlod ko‘p narsa yarata oladi. Haqiqatan, dunyo mingyilliklar qa‘rida rivojlanish jihatidan faqat oldinga qarab harakat qildi, muttasil o‘tdi. Bularning barchasi ilmtalablik samarasi edi. Biroq bu ilmtalablik bugun shunday bosqichga kelib ulguridiki, inson yaratgan kashfiyotlar aqli bilan raqobatlasha boshladi. Ya‘ni inson omilining ahamiyati pasayib, sun‘iy xilqatlarga vazifalarni bajaruvchi vosita sifatida qarash boshlanmoqda.

Dunyo qaysidir ma‘noda aqlga to‘yindi. O‘zini dunyo drayveri sifatida hisoblovchi tabaqalarga endi ko‘proq iqtidorlilar emas, arzon ishchi kuchi kerak bo‘lmoqda. Oddiy odamlar, ayniqsa, yoshlar arzon ishchi kuchi maqomiga rozi bo‘lishi yoki shundan ham mahrum qolishi kerak. So‘ngi o‘n yillikda dunyo yoshlari orasida eng ommalashtgan odatlar asosida o‘yinqaroqliq, vaqtini zo‘ye ketkazish yotibdi. Sezdimasdan yoshlar e‘tibori muttasil ko‘ngilochar saytlar, behuda video‘yinlarga jalb qilinmoqda. Toki ular umrining ilm olishi kerak bo‘lgan muhim davrini bema‘nigarchiliklarga sarflasin hamda oradan vaqt o‘tib, muhtojlikka uchraganida yashirin kuchlarga arzon ishchi sifatida xizmat qilishga rozi bo‘lsin, degan g‘araz niyat yashirin. Bugungi yoshlar kim, degan savolning javobi bunday: yoshlar boshqarilayotgan dunyoning eng ko‘p talafot ko‘rayotgan qatlami.

Xo‘sh, bunga qarshi turish mumkinmi? Albatta, mumkin, biroq bu jarayon har bir mamlakatdan alohida yondashuv talab qiladi. Keling, ularni O‘zbekiston misolida birma-bir ko‘rib chiqaylik.

Mo‘jiza o‘z-o‘zidan sodir
bo‘lmaydi

Har qanday katta muvaffaqiyat mehnat va harakat ortidan keladi. Kimgadir ishonib qolish

Bugun bamaylixtotirlik yarashiqli xususiyat emas. Farzand tarbiyasidan tortib, jamiyatda o‘zimizni tuta bilishgacha ogohlik bilan harakatlanish — davr talabi. Aks holda, yumshoq yerga igna sanchish oson, deganlaridek, turli xurujlarga uchrayveramiz. Yana bir haqiqatni bilishimiz kerak: bugun har qanday xuruj qurol bilan emas, avvalo, axborot

vositasida boshlanayotir.

“Oq” deganda yaxshilik, “qora” deganda esa yomonlik nazarda tutilganini barchamiz yaxshi bilamiz. Dunyo, odamzod hayoti ana shu ikki tarafning muttasil kurashidan iborat bo‘lib kelgan. Insoniyat hayotining hech bir davrida bu ikki kuch orasidagi kurash bugungidek kuchli, niqoblar ostida kechmaganini aniq. Ayniqsa, yangi asr boshidan bu kurash shunchalik yoyildi, u kirib bormagan soha qolmadi hisob. U hatto e‘tiqod masalasiga ham singib bordi. Dunyodan huzur ko‘tarildi. Har ikkalasi shunday niqoblarga kimoqdaki, bir ko‘rishda tanib olishga ko‘zning o‘zi kamlik qilyapti. Demak, raqobat ayni darajaga chiqqan ekan, oq bilan qorani ajratish zarurati ham millatimiz yoshlari uchun har qachongidan dolzarb.

Biroq buni qanday o‘rganish mumkin? Albatta, milliy merosimizni targ‘ib qilish orqali. Misol uchun, xalq dostonlarini o‘qir ekansiz, ulardagi qahramonlar turli qiyinchiliklarga duch keladi va ularni yengib o‘tadi. Masalan, Alpomish alp bo‘lgani bilan kamchiliklardan xoli emas edi. Nafsin tiya olmagan, o‘ziga qattiq ishonib yuborgani sababli qayta-qayta pand yeydi, aldanadi. Biroq xatolardan chiqarilgan xulosa oxiri uni to‘g‘ri yo‘lga solib, “oq bilan qorani tanitdigan” insonga aylantiradi.

Bir hikmat bor: xato qilishni istamasang, sengaacha qilingan xatolarni o‘rgan va ulardan xulosa chiqar. Shu ma‘noda, yoshlarni oq-qorani tanitdigan qilib voyaga yetkazish uchun tariximizning, ota-bobolarimizning faqat yutuqlarini emas, kamchiliklarini ham ro‘yirost ko‘rsatib berishimiz kerak. Internetda o‘qiganlarimga ko‘ra, inson psixologiyasi yutuqlardan ko‘ra, mag‘lubiyatdan ko‘proq xulosa chiqarar ekan. Endi o‘ylab ko‘raylik: shu paytgacha ishlangan kinoifilmarda, asarlarda asosiy urg‘u nimalarga qaratilgan? Bu masalada ham jiddiy bosh qotirishimiz kerakdir...

Kelajakni qanday
qarshilash kerak?

“Kelajak” degan tushuncha ham tobora nisbiylashib borayotir. Tavakkal bilan farovon kelajakka erishish imkonsiz. Aslida, kelajak qayerdan boshlanadi? Bugun uyquga yotamiz, ertalab uyg‘onishimiz esa kelajakda sodir bo‘ladi. Ya‘ni bugun qay holatda uxlasak, ertaga uyg‘onishimiz sifati ham shunga mos bo‘ladi. Demak, kelajak qanday bo‘lishi bugun qay tarzda yashayotganimizga bog‘liq.

Hozir ta‘limga sustkashlik bilan qarab, kelajak avlod orasidan ilm-fan daholarini kutish — butunlay tavakkalchilik. Chunki yoshlarni bugun tashqi ta‘silardan himoya qilmay, ertaga ulardan sof milliylik kushiga qanchalik haqlimiz?

Modomiki, ertamiz bugunimizdan farovon bo‘lishini istar ekanmiz, kunimizni mehnatga, harakata to‘ldirishimiz kerak. Yoshlarda mehnatsevarlik hissi kamayib borayotir. Yil sayin oson yashash, imtiyozlarga o‘chlik istagi ortayotgandek. Biroq haqiqiy farovonlik hamisha qattiq mehnat ortidan kelishini unutmashlik lozim.

Biz ko‘zlagan manzil, biz istagan hayot bugungi kunlarimiz ortidan keladi. Ko‘pchilik, ayniqsa, yoshlar orasida kelajakka nisbatan qarash noto‘g‘ri shakllangandek. Ya‘ni bugungi kunlar kun emas, ularning bari safarbarlik asosida tasavvurdagi kunlar uchun xizmat qilishi, toki manzilga yetmaguncha doimiy ichki norozilik ongimizni tark etmasligi kerak, degan tushuncha umumiy kayfiyatga aylanib borayotgani kishini o‘yga toldiradi. Menimcha, bu muammoda yoshlarga qaratma kuchli mehnat qil, deyish o‘rniga

“Kelajak” degan tushuncha ham tobora nisbiylashib borayotir. Tavakkal bilan farovon kelajakka erishish imkonsiz. Aslida, kelajak qayerdan boshlanadi? Bugun uyquga yotamiz, ertalab uyg‘onishimiz esa kelajakda sodir bo‘ladi. Ya‘ni bugun qay holatda uxlasak, ertaga uyg‘onishimiz sifati ham shunga mos bo‘ladi. Demak, kelajak qanday bo‘lishi bugun qay tarzda yashayotganimizga bog‘liq.

tasavvur qiling: mamlakatimizda motivatorlar paydo bo‘lganidan buyon necha minglab yoshlarning ongi havo bilan to‘ldiriladi?

Qiziqib ko‘rsangiz, motivatorlar namuna qilib ko‘rsatadigan qahramonlarning, ular iqtibos keltiradigan kitoblarning deyarli birortasi millatimizga, asrlar davomida yashab kelayotgan e‘tiqodimizga xos emas. Deyarli barchasida boylik, muvaffaqiyat hamda ustunlik birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Savol tug‘iladi: halollik, mardlik, odamiylik muhimmasmi? Nahotki, muvaffaqiyat bularning barchasini qurbon qilish evaziga kelishi kerak bo‘lsa? Aslida, motivatorlar o‘zi bilib yoki bilmagan holda yashirin kuchlarning maqsadini amalga oshirishga hissa qo‘shmayptimi? Nahotki, ming yillik tariximizda shifadagi o‘rnini bosuvchi asarlar yoki namuna sifatida ko‘rsatiladigan milliy qahramonlar topilmasa?

Balki yoshlarimizni shunday motivatsiya xurujidan himoya qilish vaqti keldandir? Balki allaqachon ularning milliyligimizga mos muqobil shakllarni yaratish fursati yetgandir? Jiddiy o‘ylab ko‘rmog‘imiz zarur.

Oq-qorani ajratish iqtidori

Ota-bobolarimizdan bir ibora qolgan: farzand balog‘atga yetganda “bu ham oq-qorani tanitdigan bo‘lib qoldi”, deyimiz. Bu iborani har qaysimiz bir marotaba bo‘lsa ham ishlagan bo‘lsak kerak. Quloqqa oddiy eshitilgani bilan zaminida katta mazmun yashirin.

Yuksalish pallas

Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq, 30-iyun — Yoshlar kuni arafasida azmu shijoati, bilim va salohiyati bilan mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo‘shayotgan bir guruh faol yoshlar “Kelajak bunyodkori” medali hamda “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

MARJONANING
MARD O‘G‘LONI

Sariosiyo tumanidagi Marjona mahallasida yashovchi Umidjon Sharipov va Sayram Jumayeva shu kunlarda to‘ng‘ich farzandi — Inomjon Islomovning “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotini olganidan cheksiz quvonch va faxr hissini tutmoqda.

Odatdagi tonglardan birini marjonaliklar xushxabar bilan qarshi olishdi.

— Sharipov muallimning katta o‘g‘li “Mard o‘g‘lon” mukofoti bilan taqdirlanibdi.

— Rohatini ko‘rsin, ota-onasi shu Inomjonni deb rosa zahmat chekdi.

Adirliliklar bag‘rida joylashgan do‘ppidekkina qishloqda yashab kelayotgan, Sho‘rchi tumanidagi 125-ko‘zi o‘jiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 11-sinf o‘quvchisi Inomjon Islomovning kelajakka yorug‘ maqsadlar bilan intilishi suhbatlashgan kishini hayratga soladi.

Ota-ona farzandining porloq kelajagi, kamolini o‘ylab yashaydi. O‘g‘il-qizning katta-kichik yutug‘i, erishgan natijasi ota-onaning jussasiga sig‘mas darajada quvonchga sabab bo‘ladi.

— Shu bola tug‘ilganidan buyon ko‘nglim qorong‘i edi. Qo‘ni-qo‘shnilarning oilamizga achinishini ko‘rib, yuragim ezilardi, — deydi Umidjon Sharipov. — Lekin juda yoshligidan Inomjonning

Dunyoda iste’dodsiz inson yo‘q, faqat buni sezmaydiganlar bor, degandi olimlardan biri. Inomjon ustozlari ko‘magida ko‘rish qobiliyatida nuqsoni borlar uchun geometrik shakllarni o‘rgatuvchi yangi ixtiroga qo‘l urdi. Xo‘sh, inklyuziv ta‘lim uchun mo‘ljallangan loyihaning ahamiyati nimada?

dunyoqarashi boshqacha edi. Tinmay o‘qib, izlanadi. Bolaligidan Prezidentimiz bilan uchrashish orzusi bor edi. Niyatni to‘g‘ri qilish kerak ekan, mana, o‘g‘lim bu niyatiga erishdi.

Davlat tomonidan imkoniyati cheklanganlarga yaratilayotgan sharoitlardan Inomjon Islomov ham oqilona foydalanyapti. Qator fan olimpiadalarida ishtirok etib, iqtidori va salohiyatini namoyon etib kelmoqda. Ko‘rishida kamchilik bo‘lsa-da, tengqurlaridan qolishmay turli loyihalar evaziga “Ta‘lim iftixori”, “Yosh tadqiqotchi” kabi esdalik nishonlarga sazovor bo‘ldi. Bunga hamohang davlat tomonidan e‘tirof etila bordi. Bugun Inomjon o‘ziga bildirilgan yuksak ishonchdan mamnun.

Inomjonning onasi bilan suhbatlashar ekanmiz, yigitning yuksak mukofotga loyiq ko‘rilgani bejiz emasligini angladik. Inomjon Islomov iqtidori, salohiyati, musiqa bilan

Bu loyihani biz Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligiga taqdim qildik. Loyiha mutasaddilarning ham e‘tiborini tortdi.

Sho‘rchi tumanidagi 125-ko‘zi o‘jiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internet bitiruvchisi Inomjon Islomov mazkur ta‘lim maskanini shunchaki tugallamaypti, “Mard o‘g‘lon” mukofoti sohibi sifatida e‘tirof etilyapti.

Mamlakat va jamiyat zamonaviy bilim hamda texnologiyalarni egallagan, iqtidorli, ma‘naviy yetuk yoshlari bilan qudratli. Bugungi imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalangan o‘g‘il-qizlar yuksak natijalari bilan yurtimiz taraqqiyotining yangi sahifasini bitirmoqda. Bu oddiy sahifa emas, aksincha, yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga intilishlar sahifasi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Ko'hna dardni yangilasini

“Ushshoq” sadosi

II Xalqaro maqom san'ati anjumanidan keyingi o'ylar



Muxtasar TOJIMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Suhbatimiz avvalida O'zbekiston Qahramoni, xalq artisti Munajat Yo'lchiyevaning bu e'tirofdan so'ng bizning qalbmiz puchmoqlariga ham o'sha go'zal tarona kirib keldi:

Ey sar-vi-noz gul-sha-ni

boo-g'i ma-loo-ha-tiiti,

Ey gul'-uzoo-ri mah-va-shim

sar-vi qoo-ma-tiiti.

La'-ling ta-bas-sum et-di-yu

jo-nim a-siir-duuur

Shak-kar so-g'in-di to'ti-ka-bi

yo'q ha-lo-va-tii-meyeey...

Do'ppisi o'ziga juda yarashgan, yuzi nurli ustoz san'atkor Yunus Rajabiyning nay kabi yoqimli ovozi ni eslagan, maqom sehriga oshufta qalb borki, maqom deb atalmish mumtoz badiiy san'at asrlar mobaynida juda katta ruhiy quvvat caqlab kelayotganini yanada chuqur his qiladi.

Yapon olimi: “Bizning Navoiyimiz yo'q!”

Jizzax viloyatining Zomin tumanida UNESCO va ISESCO shafeligida o'tgan II Xalqaro maqom san'ati anjumani ochilishidan to so'nggi lahzalarigacha Hazrat Navoiy dostonlari, asarlari, g'azallari qayta-qayta tilga olindi. Ayniqsa, festival doirasida “Maqom san'atining nazariy va amaliy asoslari: muammo va yechimlar” mavzusida o'tkazilgan II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya san'atshunos va tadqiqotchilarning qizg'in bahs-muhokamalariga boy bo'ldi.

— San'atshunoslik fanlari doktori, professor Rustam Abdullayevning “XX asr maqom ilmi: tarix, nazariya va amaliyot”, angliyalik etnomusiqashunos Rechil Xarrisning “Uyg'ur musiqasining mushtarak tarixlari”, Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi san'atshunoslik bo'limi mudiri Asliddin Nizomovning “Shashmaqom” tojik va o'zbek xalqlari ma'naviy birligining badiiy ramzi sifatida” nomli ma'ruzalari menda juda katta taassurot qoldirdi, — deydi Munajat Yo'lchiyeva. — Ularning har biri o'z ma'ruzasida Hazrat Navoiyning o'lmas ijodiga alohida to'xtalib o'tdi. Olimlarning mulohazalarini tinglab turib, bir xalqaro anjumanda yaponiyalik olim Genishi Sugening “Bizning Navoiyimiz yo'q!” deya afsus bilan so'zlaganini esladim. Bugun anjuman bahona yana yangray boshlagan “Ushshoq” sadosi yoshlar qalbiga kirib borar ekan, Alisher Navoiy kabi sharq mutafakkirlari tarannum etgan ko'hna ohanglar ko'ngillarni yangilasini, maqomga oshuftalar yanada ko'paysin, deymam...

“Bu yilgi maqom festivalini avvalgisidan ham o'zgacha zavq va intiqlik bilan kutdik. Chunki o'tgan to'rt-besh yilda maqom umumbashariy tuyg'ularni avj pardada tarannum etadigan nodir san'at turi ekanini his qila boshladik. U o'zida musiqa, she'rriyat va raqs san'atini ajoyib tarzda uyg'un etgan yuksak tafakkur va insoniy kamolot qomusi bo'lgani uchun ham ustoz san'atkor Yunus Rajabiy butun umrini maqomni to'plash va sayqallashga bag'ishladi. Davlatimiz rahbari san'at shinavdalarini qutlab so'zlayotgan chog'da qulog'im ostida Yunus Rajabiy ijrosidagi “Ko'cha bog'i-2” ashlusi ohangi va xonandaning dilgir ovozi yangray boshladi”.

“Koxi Borbad”da kechgan go'zal majlislar

O'zbek va tojik xalqlarini ko'p asrlik do'stlik rishtalari, umumiy tarix, madaniy va ma'naviy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar birlashtirib turadi. 2024-yil aprelda Prezidentimizning Tojikistonda davlat rahbari bilan uchrashuvi ikki xalq o'rtasidagi o'zaro do'stlik, mehr-oqibat, davlatlararo munosabatlar, ittifoqchilik darajasini yangi bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, Tojikistonda bo'lib o'tgan “O'zbekiston madaniyati kunlari” katta tantana bilan tashkil etilgani e'tiborga molik. Bu haqda suhbatdoshimiz bunday dedi:

— Ushbu muhim tadbirda O'zbek milliy maqom san'ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi “Maqom” ansambli ham qatnashdi. Dushanbe shahridagi “Koxi Borbad” konsert saroyida o'tkazilgan go'zal musiqa anjumanida san'atkorlarimiz kuchli repertuar bilan chiqdi. Ansambli badiiy rahbari, O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov bastalagan bir qancha asarlardan namunalar ijro etildi.

Tojikiston matbuoti ushbu konsert haqida yozib, ansambli yakkaxon xonandalari va O'zbekiston xalq artisti Munajat Yo'lchiyevaning chiqishlari davomli olqishlar bilan kutib olinganini qayta-qayta ta'kidladi. Kelgusida bu kabi konsert dasturlari davom etishiga hamda o'zaro do'stlik aloqalari yanada rivojlanishiga biz ham ishonamiz.



“Qorabog' shikastasi” o'zbek Yulduzini yig'latganmi?

Ilmiy-amaliy konferensiyadagi ma'ruzasi avvalida ozarbayjonlik tadqiqotchi, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Sexrana Kasimi o'zbek san'atkorlarining ozariy mug'omlarga e'tibori haqida to'xtalib o'tdi. Ishtirokchilar ham uning so'zlarini ma'qullab, 2009-yilda bo'lib o'tgan “Mug'om olami” xalqaro festivalini yodga oldi. Mazkur festivalda o'zbekistonlik iqtidorli xonanda Yulduz Turdiyeva g'olib bo'lgan edi. Uning ijrosidagi “Qorabog' shikastasi” qo'shig'i barchani lol qoldirgan. O'shanda “Yulduz Turdiyeva ijro etgan “Qorabog' shikastasi” maqomi ozarbayjonliklar qalbini zabt etdi”, deb e'zdi Bokudagi gazetalari.

Ozarbayjon poytaxtida bo'lib o'tgan jahon maqom qo'shiqchilari bellashuvida Buxoroning chekka qishlog'idan kelgan talaba qiz Yulduz Turdiyeva maqomchilikdagi yangi iste'dod, deya tan olindi. O'shanda jurnalistlardan birining “Mukofot beriladigan paytda nega yig'ladingiz?” degan savoliga Yulduz Turdiyeva bunday javob bergan edi: “To'g'risi, men kutmagan edim. “Qorabog' shikastasi” mug'omi juda murakkab. Bu ozarbayjon mug'omini yurakkab yaxshi ko'rganim uchun astoydil harakat qildim. Birinchi o'rinda sobibi, deb e'lon qilishganida ichimdan yig'i keldi. Axir bu festivalda Osiening boshqa

davlatlaridan, Sharq, arab mamlakatlaridan kelgan mahoratli ijodkorlar ko'p edi. Dastlab o'zbek maqomini cho'chib aytdim. Lekin bir qarsak yangragandan keyin o'zimni tutib olib, “Qorabog' shikastasi”ni boshqacha kayfiyatda ijro qildim. Men uchinchisi o'ringa ham xursand bo'lardim. Chunki bu tanlovda qatnashishning o'zi bir baxt. Hamma ijodkorlar “O'zbekistondan kelib Ozarbayjonning “Qorabog' shikastasi”ni ijro qilding. Rahmat senga” deb meni yurakkab tabrikladi”.

— 2013-yil 21-24-oktabr kunlari Ozarbayjonning Boku shahrida bo'lib o'tgan “Mug'om” V xalqaro qo'shiq festivalida yurtimiz yoshlari ham munosib ishtirok etgan edi, — deydi Munajat Yo'lchiyeva. — Festivalda “Bayoti sheror” nomli Ozarbayjon xalq qo'shig'ini maromiga yetkazib ijro etgan Ruxsora Obloqulova III darajali diplomga munosib topildi. Ishtirokchilar orasida eng yosh mahoratli ijrochi, deb topilgan Doniyorbek Jasurbekov festivalning maxsus diplomini bilan taqdirlandi. Oybek Madrahimov, Ruxsora Obloqulova, Dildora Abdusattorova, Jamshid Mo'minov, Baxtiyor Ne'matov, Doniyorbek Jasurbekov muxlisu mutaxassislar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Yosh ijodkorlarining maqomga qiziqishi va ishtiroqi oshib borayotganidan juda xursandman. Musiqa san'atining ajralmas bo'lagi hisoblanuvchi ijrochilik an'analari dardona ijod namunalarining avlodidan avlodga o'tib kelishiga xizmat qiladi. Bu, albatta, otabobalar amaliyotida shakllanib, rivojlangan, zamon talabi bilan yangicha badiiy mazmun kasb etuvchi bebaho jarayondir.

Ilk ayol ijrochisini topgan ashula tarixi

Yosh ijrochilar haqida gap ketganida ustoz san'atkor hamisha o'zining yoshlik yillarini eslaydi. 1980-yil fevralida “Nazm va navo” ko'rsatuvida “Munajat” va “Ushshoq”ni aytgan Munajat Yo'lchiyeva bir kechaning o'zidayoq xalq og'ziga tushadi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, o'zbek mumtoz qo'shiqlari sultoni bo'lmish “Qaro ko'zim” yoxud “Ushshoq”ni asrlar mobaynida zabardast qo'shiqchilarning ko'pi aytib kelgan bo'lsa-da, bu o'lmas qo'shiq Munajat Yo'lchiyeva qiyofasida ilk ayol ijrochisini topadi.

Bir kuni qo'qora televizor karnayidan ohista, o'ktam ovoza “Qaro ko'zim” tarala boshlaydi. Iroqi do'ppi kiygan atlas ko'ylakli qiz qo'lini ko'ksiga qo'yib kuylar, sokin ovoz borgan sari kuchayar edi. Munajat Yo'lchiyeva bu qo'shiqni ilk bor ekranda Hazrat Navoiyning tavalludi sanasida kuylagan.

Munajat opa “Qaro ko'zim”ni aytib yurgan kezlarda e'ish ijodkorlari rag'batlantirish haqida qaror chiqadi. O'sha davrda O'zbekiston rahbari bo'lgan Sharof Rashidov bu qarorga asosan, Munajat Yo'lchiyevani qo'llab-quvvatlaydi.

— Biz o'qitgan paytda maqom ansambllariga munosabat boshqacha bo'lgan shekilli, mumtoz qo'shiq kuylaydigan, ovozi kuchli talabalarni izlashgan. Men bilan birga sakkiz talaba maqom ansambliga ishga taklif qilingan. Eng katta rahbarlar “Mana, e'ish ovozlari bor ekan. Shularni ish bilan ta'minlanglar”, degan. Bizga o'qish bilan birga, ishlash uchun ham sharoit yaratib berildi. Ham o'qib, ham ishlaganmiz, — deydi Munajat opa.

Yosh san'atkorlar ijrosidagi maqomashulalarini xalqimiz juda yaxshi qabul qilgani bois, ularga alohida e'tibor qaratila boshlaydi. O'sha paytda Munajat Yo'lchiyeva va tengdoshlari tayetlov kursida bo'lsa-da, professional san'atkorlar orasiga, maqom ansambliga qo'shiladi. U paytda maqom ansambliga ustoz san'atkor Orif Alimxusumov rahbarlik qilar edi. Bir oz vaqt o'tib ansambлга ham sozanda, ham bastakor Shaykat Mirzayev rahbar qilib tayinlanadi. Ansambлга Munajat Yo'lchiyeva kabi bir guruh yosh iste'dodlilar katta ishonch bilan to'liq shartga ishga qabul qilinadi.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniyy” kitobiga kiritilgan “Qaro ko'zim” g'azali ko'plab she'rriyat ixlosmandlariga yod bo'lib ketgan, desak adashmaymiz. Orifona sevgi haqida so'zlaguvchi bu g'azal bir o'qishdayoq qalbingizni jimirlatib, yorug' xayollar baxsh etadi. Falakning gardishini qarangki, bu g'azalni targ'ib qilish sho'rolar chekiga tushadi. G'azal “Ushshoq” degan kuyga solinib, televizorda, radioda aylaniriladi. Hatto plastinka qilib chiqarilib, bu noyob ashula haqida hujjatli film suratga olinadi. Munajat Yo'lchiyeva bu ashulani oddiy cho'ponlar, dehqonlar, paxtakorlar davrasida kuylar edi. Ular ushbu orifona misralarni quvonch bilan qabul qilar, hech qanday tushuntirishlarsiz his qilar, anglar edi.

Ezgulik va tinchlikka tashna qalblar bayrami

O'tgan olti-yetti yilda ustoz san'atkorlarning ijodiy merosini o'rganish, yosh avlod orasida targ'ib qilish borasida juda katta ishlar qilindi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2017-yil 17 noyabrdagi “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori nafaqat san'atkorlarni, balki yurtimiz va xorijdagi barcha san'at ixlosmandlarini quvontirdi. Qarorga ko'ra, 2018-yildan boshlab har ikki yilda bir marta xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish belgilandi. Pandemiya tufayli ikkinchi xalqaro festival o'tkazilishi bir oz ortga surildi. Biroq o'tgan to'rt yilda maqomni sog'ingan, qadrlagan xalqimizning ishtiroqiyo'q so'nib qolmadi.

— Anjuman ochilishida Prezidentimizning “Ezgulik va gumanizm bayrog'i ostida birlashgan, san'atni butun borlig'i bilan sevadigan barcha ijod ahli uchun ushbu festival, hech shubhasiz, katta bayramdir. Maqomlar jahon musiqa ixlosmandlari ruhining tuganmas kuch-quvvat va ilhom manbai bo'lsin”, degan so'zlaridan ko'nglimga faxr va g'urur, ko'zlarimga esa shodlik, shukrona yoshi keldi, — deydi Munajat Yo'lchiyeva. — Festival doirasida Zominsoy majmuasi hududida viloyatlarning o'ziga xos madaniyati va san'atini namoyish etish uchun 14 ta hudud o'z pavilonlarini tashkil etdi. Bu yerda xalqaro musiqa yarmarkasi, maqom san'atiga oid turli ko'rgazmalar, jumladan, milliy sozlar va liboslar, hunarmandlik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari, haykaltaroshlik namunalari namoyish etildi. San'at ixlosmandlariga badiiy va hujjatli filmlar, audio va video disklar, kitoblar, fotosuratlar taqdim etilgani nur ustiga nur bo'ldi.

... Hayajonli lahzalar. Boshlovchilar II Xalqaro maqom san'ati anjumani g'oliblarini taqdirlash marosimi boshlanganini e'lon qildi. Uchinchi o'ringa ansambli jamoasi bo'yicha Xitoy “Shinjon” badiiy teatrlarining “Maqom” badiiy truppasi, yakkaxon ijrochilik bo'yicha hindistonlik xonanda Ali Amjad Xon munosib ko'rildi.

Ikkinchi o'ringa ansambli jamoasi bo'yicha O'zbek milliy maqom san'ati markazi Jizzax viloyati hududiy bo'limi, yakkaxon ijrochilik bo'yicha esa turkiyalik xonanda Chidem Gurdal sazovor bo'ldi.

Birinchi o'rinni ansambli jamoasi bo'yicha O'zbek milliy maqom san'ati markazi Yunus Rajabiy nomidagi maqom xonandalari ansambli, yakkaxon ijrochilik bo'yicha Tojikiston milliy konservatoriyasi guruhi solisti Xurshid Ibrohimzoda qo'lga kiritdi.

Barcha ishtirokchilarni mustohloq bilan kutgan guruhlar eronlik san'atkor, “Fors” jamoasi vakili Ali Asqar Arabshohiyga nasib qildi. Mukofotni g'olibga madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov va O'zbekiston Qahramoni, xalq artisti Munajat Yo'lchiyeva topshirdi.

Saksonga yaqin davlatdan qariyb 400 nafar ishtirokchi qatnashgan nufuzli anjuman ezgulik va tinchlikka tashna insonlarning birdamlik maydoniga, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar shu'lasini olamga taratgan eng katta bayramga aylandi. Anjumanda turli tillarda ijro etilgan qay bir taronani tinglamang, mumtoz ohanglar zamiridagi asl o'zligimiz — go'zal vatan sog'inchi va iztiroblarini, tomirlarimizda oqib turgan ishq sururini his qilasiz. Demak, O'zbekiston ayni anjuman orqali butun dunyo ahlini ana shu ajib tuyg'ular, insoniy rishtalar sari chorlamqoda.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2274.
43368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy